



MAIN DIRECTIONS OF REFORMS IN THE FIELD OF FOOD POLICY IN UZBEKISTAN (based on the example of 1991–2001)

Doston, Bosimov

*Employee of Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: food policy, food security, peasant economy, farming, homestead economy, livestock, agricultural reforms, price liberalization, state support, social protection, grain production, food subsidies.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article illustrates the economic and institutional reforms implemented in Uzbekistan in 1991-2001 to provide the population with food products. In particular, it analyzes government decisions on the development of dehkan (farmer), cooperative and household farms, ensuring food security, and strengthening social protection of the population. It also reveals the essence of measures to liberalize food prices, reform production systems, and provide state support.

O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT SIYOSATI SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI (1991-2001-yillar misolida)

Doston, Bosimov

*Jizzax davlat pedagogika universiteti xodimi
Jizzax, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat siyosati, oziq-ovqat xavfsizligi, dehqon xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, tomorqa xo‘jaligi, chorvachilik, qishloq xo‘jaligi islohotlari, narxlarni liberallashtirish, davlat qo‘llovi, ijtimoiy himoya, don yetishtirish, oziq-ovqat dotatsiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1991-2001-yillarda O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan iqtisodiy va institutsional islohotlar yoritilgan. Jumladan, dehqon (fermer), shirkat va tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga oid hukumat qarorlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oziq-ovqat narxlarini liberallashtirish, ishlab chiqarish tizimlarini isloh qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В ОБЛАСТИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ (на примере 1991–2001 годов)

Достон, Босимов

Сотрудник

Джизакского государственного педагогического университета

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
продовольственная политика, продовольственная безопасность, крестьянское хозяйство, фермерство, подсобное хозяйство, животноводство, аграрные реформы, либерализация цен, государственная поддержка, социальная защита, производство зерна, продовольственные субсидии.		В статье рассматриваются экономические и институциональные реформы, проведенные в Узбекистане в 1991-2001 годах для обеспечения населения продуктами питания. В частности, будут проанализированы государственные решения, связанные с развитием крестьянских (фермерских), кооперативных и личных подсобных хозяйств, обеспечением продовольственной безопасности, усилением социальной защиты населения. Раскрывается также суть либерализации цен на продукты питания, реформирования системы производства и мер государственной поддержки.

Kirish

Respublika hukumatining eng muhim vazifalaridan biri aholining iste'mol tovarlariga nisbatan o'sib borayotgan talabini qondirishdir. Chunonchi, aholi oziq- ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga ham bog'liq. Chunki mamlakat miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga bo'lgan mamlakat ehtiyojini tashqi omillarga (chet el davlatlariga) bog'lanmagan holda ta'minlashi lozim. Shuning natijasida mamlakat miqyosida siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

Sobiq Ittifoq yurtimiz yerlaridan mahsulot va homashyo olib ketib, bizga suv va havoday zarur narsalarni o'z ko'rsatmasi bilan keltirib berardi. Soda qilib aytganda, paxta va boshqa boyliklarimiz olib ketilardi, don, shakar, yonilg'i va boshqa xalq istemoli mollari, umuman hayotimizga, iqtisodiyotimizga va xalq xo'jaligimizga zarur bo'lgan mahsulotlar olib kelinardi. Misol uchun sobiq SSSR Kanada va Amerikadan har yili 40-50 million tonna g'alla sotib olardi. Shuning hisobidan O'zbekistonga ham ulush berilardi. Ittifoq parchalanib ketganidan keyin yillik ehtiyojimizga yetarli 6 million tonna g'allani va uni sotib olishga valyutani topish muammo bo'lib qoldi. 1991-yilning oxiri va 1992-yilning boshida ko'p narsalarda uzilish bo'lib, juda og'ir ahvolga tushib, mamlakat naq ocharchilik ostonasiga kelib qolgandi [1].

Shuningdek, mamlakatimiz 1990-yillarga oziq-ovqat mahsulotini yetishtirib beradigan asosiy tarmoq bo'lgan qishloq xo'jaligining ayanchli ahvoli bilan kirib keldi. Jumladan, O'zbekiston qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan zaharli ximikatlar tabiatni xarob qildi. 1987-1990-yillarda dehqonchilik maydonlarida pestitsidlardan foydalanish har gektar yerga 19,5-24 kilogrammdan bo'lgani holda 79-84 ming tonnani tashkil etdi. Jami bo'lib qishloq xo'jaligida 70 xilga yaqin turli zaharli kimyoviy moddalar ishlatildi. E'tiborli joyi shundaki, bu zaharli kimyoviy moddalarning faqat 1 foizigina zararkunanda hasharotga ta'sir qilar ekan, qolgan 99 foizi tuproq, yer, suv, havo, o'simlik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini zaharlagan [2].

Sovetlar hukumatining ochko'zligi, Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari suvlaridan hisob-kitobsiz foydalanish oxir-oqibatda Orol fojiasini keltirib chiqardi. Havoga, yerga sochilayotgan tonnalab qum-tuzlar Orolbo'yi atrofida ham jonli va ham jonsiz tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. 1970-yillardan keyingi davrda 50 dan ortiq ko'l qurib bitdi [3]. O'zbekistonda 1990-yilga kelib o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar 853 ming gektarni tashkil etdi [4]. Sovetlar hukumatining mana shunday siyosati natijasida mustaqillik yillarida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish borasida juda katta xavfni yuzaga keltirdi.

Asosiy qism

Mustaqillik yillarida go'sht iste'moli – 1,4-marta, sut – 1,3 barobar, sabzavot va poliz mahsulotlari – 2,6-marta, kartoshka – 2 barobar, mevalar iste'moli – 6,4 karra oshdi [5]. 1990-1991-yillarda hammasi bo'lib O'zbekistonda 940 ming tonna g'alla yetishtirilgan, o'rtacha hosildorlik esa 17 sentnerni tashkil qilgan [6]. O'zbekiston Respublikasida 1991-yilda doimiy aholi soni 20 mln. atrofida bo'lganligini hisobga olsak, yuqoridagi raqamlar aholining oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan talabining qanchalik ekanligi ko'rsatadi [7].

I.A.Karimov O'zbekiston KP MK birinchi kotibi bo'lganidan keyin, 1989-yil 24-iyunda hukumat yig'ilishida u qat'iyon: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi", degan fikrni ilgari surdi, shuningdek, qadamba-qadam respublikamizni rivojlantirish bo'yicha chuqur o'ylangan o'z dasturini tatbiq etishga kirishdi. Qisqa muddatlarda tubdan ko'rilgan boshqa choralar bilan birga 1989-yil avgustidayoq tarixiy qaror qabul qilindi - 400 ming gektarga yaqin sug'oriladigan yerlar qariyb 2,5 million oilaga tomorqa sifatida ajratib berildi [8].

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida Hukumat tomonidan bir qator qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimovning 1990-yil may oyidagi "Respublika aholisi shaxsiy tomorqalarning chorva va parrandalarini ozuqalar bilan ta'minlash asosida chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish to'g'risida"gi Farmonidan keyin respublika

aholisiga 183 ming gektar unumdor yerlar ajratilib 1,5 mln. qishloq oilalari shaxsiy tomorqalarini kengaytirish imkoniyatiga va 580 ming oilalarga tomorqa yerlari ajratildi.

Respublikaning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1991-yil 28-noyabrdagi “Davlat tomonidan tadbirkorlikni va dehqon (fermer) xo‘jaliklari kelgusida qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, aholiga shaxsiy tomorqa xo‘jaligini yaratish uchun qo‘shimcha ravishda 108,5 ming gektar maydon ajratildi va qisqa vaqt ichida shaxsiy tomorqa xo‘jaliklar ekin maydonlari ikki marta ortib, 516 ming gektarga yetdi. Bu bilan ijtimoiy oziq-ovqat ta‘minoti masalasida ma‘lum ko‘lamdagi ijobiy ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikada ishbilarmonlik faoliyatini davlat yo‘li bilan qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-295-sonli farmoniga muvofiq dehqon (fermer) xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yer uchastkalari kamida 10 yil muddat bilan ijaraga topshirish va ijara muddatini yana uzaytirish huquqini berish, bunda yerlar birinchi navbatda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun ajratish, yetishtirilayotgan mahsulotning kamida 50 foizini shartnomaviy narxlarda respublika jamg‘armasiga yetkazib berganlik uchun muqobil tarzda sotish yo‘li bilan dehqon (fermer) xo‘jaliklarini qishloq xo‘jalik texnikasi yoqilg‘i-moylash materiallari, yem-xashak va boshqa resurslar bilan ta‘minlash vazifasi iqtisodiyot qo‘mitasi bilan moddiy-texnika ta‘minoti organlari zimmasiga yuklanishi, dehqon (fermer) xo‘jaliklari yetishtirilayotgan mahsulotning qolgan qismini mustaqil tasarruf etish huquqiga ega va o‘zlarining ishlab chiqarish faoliyati uchun ulgurji va chakana savdoda, davlat va shirkat korxonalari hamda tashkilotlaridan, shuningdek jamoa xo‘jaliklari va davlat xo‘jaliklaridan moddiy-texnikaviy resurslarni monesiz sotib olish va boshqalar belgilab qo‘yildi [9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “Narxlarni liberallashtirish choralari to‘g‘risida”gi qarorida eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarid narxlarining cheklangan miqdorlari belgilab qo‘yildi [10].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-yanvardagi 22-sonli qaroriga muvofiq aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish va talabalar, o‘quvchi yoshlar hamda mehnatkashlarning umumiy ovqatlanishi tizimida narxlarni barqarorlashtirishni ta‘minlash maqsadida umumta‘lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul nonushta bilan ta‘minlashning amaldagi tartibi saqlab qolindi va bunda nonushtaning qiymati bir o‘quvchi hisobiga bir kunda 40 tiyindan 1 so‘m 60 tiyingacha, ya‘ni 4 baravar ko‘paytirildi. O‘zgalarning qaramog‘iga muhtoj yolg‘iz pensionerlarga kundalik zarur tovarlar ro‘yxatiga cheklangan narxi (o‘rtacha) 30 so‘m hisobidan oyiga minimal formadagi 1 kilogramm go‘sht bepul berilish yo‘lga qo‘yilgan hamda normalangan oziq-ovqat mahsulotlari

bilan bepul ta'minlangan. Budget tashkilotlari va muassasalarining oshxona va bufetlarida tushki ovqatlar qiymatining 50 foizi, lekin har bir kishiga kuniga 5 soʻmdan oshmagan holda, respublika va mahalliy budget mablagʻlari hisobiga qoplangan [11].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “1992-yilda respublika qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning asosiy koʻrsatkichlari va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishni ragʻbatlantirish choralari toʻgʻrisida”gi qarorida oziq-ovqat sohasi boʻyicha bir qancha muhim qarorlar qabul qilingan. Jumladan: 1992-yilda jamoa xoʻjaliklari, davlat xoʻjaliklari va boshqa qishloq xoʻjaligi korxonalari paxta tolasi, pilla, don, sholi, quruq mevalar, chorva, parranda, sut, tuxum boʻyicha belgilangan topshiriqning 85 foizini hamda meva-sabzavot mahsulotlari va kartoshka boʻyicha belgilangan topshiriqning 50 foizini cheklangan xarid narxlarida respublika fondiga yetkazib berish, mahsulotning belgilangan topshiriqdan qolgan qismi va topshiriqdan ortiqcha olingan mahsulot yetishtiruvchilarning oʻz xohishlariga koʻra shartnomaviy (erkin) xarid narxlarida sotish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlarini koʻpaytirish va ulardan oqilona foydalanish, xoʻjalik yuritishning yangi shakl va usullarini — dehqon (fermer) xoʻjaliklarini, xoʻjaliklar ichidagi va boshqa kooperativlarni joriy etish borasidagi ishlarni hamma joyda avj oldirish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va xomashyoni respublikadan tashqariga olib chiqib ketish asosan respublika korxonalari, xoʻjaliklari va aholisi katta taqchillikni sezayotgan oziq-ovqat, xalq isteʼmoli mollari va ishlab chiqarish-texnika ahamiyatidagi mahsulotlarni barter yoʻli bilan ayirboshlash asosida shartnomalarga binoan amalga oshirish va boshqa qarorlab belgilab qoʻyildi [12].

Yem, yoqilgʻi va texnika narxlarining oʻsishi munosabati bilan, shuningdek, respublikaning kolxozlari, sovxozlari va boshqa qishloq xoʻjaligi korxonalarining chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni koʻpaytirishdan manfaatdorligini oshirish maqsadida 1992-yil 16-iyuldan boshlab qoramollar uchun soʻyilgan vazndagi sotib olish narxlarini har tonna uchun oʻrtacha 80 000 rubl miqdori belgilandi [13].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining chakana narxlarini va xizmatlarning tariflarini qayta koʻrib chiqish toʻgʻrisida”gi qarori bilan 1993-yilning 1-iyunidan boshlab ayrim oziq-ovqat mahsulotlarining chegaralangan chakana narxlari belgilab qoʻyildi [14].

1991-1997-yillarda rivojlanishning “Oʻzbek modeli” asosida olib borilgan islohotlarning huquqiy poydevorini yaratishga katta eʼtibor qaratildi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini samaralari tashkil qilish va rivojlantirish borasida yangi qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilindi. 1996-yil 26-noyabrda Qishloq va Suv xoʻjaligi vazirligi tashkil etildi.

Shuningdek, oziq-ovqat tovarlarining narxlarini boshqarish, ayrim turlarini sotishni va chakana narxlarini tartibga solish, chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi ta'minlash, Davlat ehtiyojlari uchun asosiy oziq-ovqat turlarini xarid qilish tizimini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotining ayrim turlarini eksport qilish bo'yicha qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, ko'plab islohotlar olib borildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "Oziq-ovqat tovarlarining narxlarini boshqarish hamda chorva mollari va sutning xarid narxlarini oshirish to'g'risida"gi qarori [15], "1993-yilda o'zbekiston respublikasida iste'mol bozorini himoya qilish to'g'risida"gi qarori [16], "Chorva, sut, kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari asosiy turlarining chegaralangan xarid narxlarini o'zgartirish va ayrim oziq-ovqat mollarining chakana narxlarini tartibga solish to'g'risida"gi qarori [17], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'oriladigan yerlarda boshqoqli ekinlar yalpi don hosilini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [18], "1993-yilning 20 iyulidan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ayrim turlarining shartnomaviy (erkin) xarid va chakana narxlariga o'tish to'g'risida"gi qarori [19], "Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish to'g'risida"gi qaror [20], "Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [21], "1995-yilda boshqoqli don ekinlari hosilini yig'ishtirib olish va davlatga topshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [22], "Matlubot kooperatsiyasi tizimida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi jiddiy kamchiliklar to'g'risida"gi qarori [23], "1996-yilda boshqoqli ekinlar doni yetishtirish va xarid qilish hajmlari to'g'risida"gi qarori [24], "Qishloq xo'jaligi ekinlari payhon qilinishiga qarshi kurashni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [25], "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori [26], "Davlat ehtiyojlari uchun asosiy oziq-ovqat turlarini xarid qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori [27], "Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlarini sotishni tartibga solish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [28], "Bozorlarda sifatsiz oziq-ovqat tovarlari sotilishini bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [29], "1999 yilda paxta xom ashyosi va boshqoqli ekinlar doni xarid narxleri va ichki xo'jalik iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [30], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozorlarning faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni [31], "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [32], "1996-yilgi meva-sabzavot mahsulotlari hosilini O'zbekiston Respublikasi

tashqarisiga sotish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [33], O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni [34] keltirish mumkin.

Bundan tashqari, ko'pgina sanoat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarilib, ochiq turdagi aksiyadorlik birlashmalari va jamiyatlariga aylantirildi, ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan oziq-ovqat, go'sht-sut, don mahsulotlari va boshqa vazirliklar tugatilib, „O'zoziqovqatsanoat“ davlat aksiyadorlik konserni (1993-yil 5-may; 1994-yil 26-sentabrdan "Oziqovqatsanoat" va "Yog'-moytamakisanoat" uyushmalari), "O'zgo'shtsanoat" davlat-aksiyadorlik uyushmasi (1993-yil 6-aprel), "O'zdonmahsulot" davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1994-yil 22-aprel), "O'zmevasabzavotuzumsanoat" davlat-aksiyadorlik uyushmasi (1994-yil 28-noyabrdan), "O'zbaliq" davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1994), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi "O'zparrandasanoat" respublika ishlab chiqarish birlashmasi (1964), "O'zbekbirlashuv" tarkibidagi Oziq-ovqat sanoati korxonalari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi [35].

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan islohotlar natijasida Respublikada yetishtirilayotgan go'shtning umumiy hajmida davlat tasarrufidan tashqari tarmoqlarning ulushi 78 foizni, sut – 91, tuxum – 46, don – 48, kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari deyarli 80-85 foizni tashkil etdi [36].

Shuningdek, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun dotatsiyalar ajratilgan bo'lib, mustaqillikning ilk yillarida davlat xazinasidan birgina non uchun o'sha vaqtdagi narxlar bilan hisoblaganda, yiliga 29,2 milliard so'm, un uchun esa 37 milliard so'm dotatsiya berilgan. Shakarning chakana narxini 200 so'm qilib belgilab qo'ygan taqdirda ham 31,8 milliard so'm, go'shtning narxi 400 so'm bo'lgan holda yiliga 80 milliard so'm dotatsiya ajratishga majbur bo'lingan. Narxlar ikki barobar ko'tarilganligi tufayli bir yil uchun davlat xaznasidan 250 milliard so'm dotatsiya berilgan [37].

Agarda 1993-yilda respublika qishloq xo'jaligida 2,2 mln. tonna don mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa [38], 1995-yilda mamlakat g'alla mustaqilligini ta'minlash bo'yicha katta qadamlar tashladi. Shu maqsadda ekin maydonlarining tarkibiy tuzilishi o'zgartirilib, g'alla maydonlarining ulushi 40 foizga yetkazildi. Natijada 1995-yil 3,3 million tonna g'alla tayyorlashga muvaffaq bo'lindi [39]. 1998-yilda mamlakatimizda boshqoli don, ayniqsa, bug'doydan yuqori hosil olindi, ya'ni 3,5 million tonna yoki 1997-yildagidan 15,4 foiz ko'p bug'doy hosili olindi [40].

Don ekinlari uchun ajratilgan maydonlar 1990-yildan 1998-yilgacha bo'lgan davr mobaynida asosan paxta ekinlari maydonini qisqartirish hisobiga 1,7 barobar oshdi. Don ishlab chiqarish ikki barobardan ko'proq oshib, 4,15 mln. tonnani tashkil qildi. Mazkur ekinlarni

yetishtirish tajribasining ko'payishi va faol seleksiya ishlari natijasida hosildorlik shu yillar mobaynida 1,3 barobar oshdi. Ushbu chora-tadbirlar don ekinlari importini sezilarli darajada qisqartirishga imkon berdi. Agar 1990-yilda respublikada iste'mol qilinadigan bug'doyning 90 dan ortiq foizi importga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilda import ulushi 19 foizdan kamroqni tashkil qildi [41].

Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991-yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 42 foizga o'sdi.

1995-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1994-yilga nisbatan 2,3 foiz ko'p yetishtirilgan, dehqonchilikdagi o'sish esa 5,6 foiz bo'lgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha ahvol 1995-yilda 1990-yilga nisbatan 89 foizni tashkil etgan [42].

1997-yilga kelib shaxsiy tomorqa maydonlari ikki barobar ortib, ular 650 ming gektar sug'oriladigan yerni tashkil etadi. Shuningdek, qoramollarning qariyb 80 foizi, qo'y va echkilarning 65 foizi, parrandalarning yaqin 60 foizi ana shu xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keldi. Kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlarining 69 foizi, mevalarning 55 foizi, uzumning uchdan bir qismi shaxsiy tomorqalarda yetishtirildi [43].

Islohotlar natijasida 1997-yilga kelib oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari importi 2 baravar kamaydi. 1996-yil bilan taqqoslaganda, don mahsulotlari, shakar va qandolat mahsulotlari importi 2 marta, un va un mahsulotlari importi 5 marta, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar importi 17 marta qisqardi [44].

Bundan tashqari, Respublikada 1991-1996 yillarda chorva mollari bosh soni 12-17 foizga kamayib ketdi. Respublikada bu holatga o'z vaqtida to'g'ri baho berildi va chorva mollari bosh sonini ko'paytirish choralari ko'rildi. Natijada 1998-yildan boshlab chorva mollari bosh soni o'sa boshladi. Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalarning barchasida mustaqillikka erishgandan keyin chorva mollari bosh soni keskin kamayib ketdi [45].

Agarda mustaqillikkacha (1990 yilda) jami qoramollar tarkibida sigirlarning salmog'i 32,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yildan boshlab bu ko'rsatkich 43 foizdan oshib ketdi. "Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 martida qabul qilingan 137-sonli qarori bilan Respublikamizdagi 1499 ta jamoa chorvachilik fermalari yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirilib, 489,1 ming bosh qoramollar, shu jumladan 96,3 ming bosh sigirlar chorvadorlarga xususiylashtirilib berildi. Keyinchalik ushbu qarorda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida aholiga 600 ming bosh zotli buzoqlar sotildi. Natijada chorvachilikning asosiy qismi aholi qo'liga o'tdi. Qoramollarning katta qismining aholi qo'liga

o'tishi uning tarkibini yaxshilanishiga (jami qoramollar sonida sigirlarning ulushining ortishiga), ijobiy tabiiy tanlanishning yuzaga kelishiga, yem-xashak ekin maydonlari yildan yilga qisqarib borishiga qaramasdan yem-xashak muammosini qisman hal etilishiga olib keldi [46].

1998 yildan boshlab eski kolxoz va davlat xo'jaliklari shirkat xo'jaliklari shaklda tashkil etila boshlandi. Shirkatlar yirik qishloq xo'jaligi korxonalari bo'lib, 2001 yilda ularning o'rtacha ekin maydoni 1233 gektarni tashkil etdi. Ular o'rtacha 94 gektardan bog' va 64 gektardan uzumzorlarga ega, mamlakatda yetishtirilgan paxtaning 60, tamakining 66, qand lavlagining 88, boshqli donning 49, mevaning 26, va uzumning 43 foizini berdi [47].

Shuningdek, dehqon xo'jaliklari faoliyati tubdan o'zgarib bordi. 1998-yilda go'shtning 90 foizi, sutning 92 foizi, sabzavot va kartoshkaning 70 foizdan ortig'i, poliz ekinlari va uzumning yarmidan ko'pi, respublikada yetishtirilayotgan mevalarning 61 foizi shaxsiy yordamchi xo'jalik deb atalmish xo'jaliklarda tayyorlandi [48].

Xulosa

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, 1990-2001-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida tub islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan oziq-ovqat tanqisligi va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, hukumat tomonidan aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, shaxsiy tomorqalar, dehqon (fermer) va shirkat xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash orqali muhim natijalarga erishildi.

Islohotlar doirasida aholiga yer ajratish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, narxlarni tartibga solish, ijtimoiy himoya choralari ko'rish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va taqsimotini boshqarish bo'yicha keng ko'lamli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bular qatorida Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, yangi qonunlar va sohani tartibga soluvchi dasturlar alohida o'rin egallaydi.

Natijada, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli sezilarli darajada ortdi, davlat tasarrufidan tashqari tarmoqlarning ulushi ko'paydi, aholining o'z tomorqalarida ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqishi va imkoniyati kengaydi. Shu orqali mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga asos solindi va mustaqillikning ilk yillaridagi iqtisodiy tanglik bosqichma-bosqich yengib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. Respublika Oliy Kengashi 10-sessiyasida so'zlagan nutqi // Zarafshon. – 1992. – 7-iyul. (№ 99 (18.939).
2. Haydarov O, Qoraboyev S. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Uslubiy qo'llanma. Samarqand. – 2022. –B. 26.
3. Fan va turmush. –1991. –№ 7. –B. 14.

4. Haydarov O, Qoraboyev S. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Uslubiy qo'llanma. Samarqand. – 2022. –B. 26.
5. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. amlakatimizning 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2014-yil 17-yanvar. I.Karimov. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar — biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. T.: O'zbekiston. 22. – 2015. – B. 108. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 2003-yilning birinchi yarmida mamlakatimiz iqtisodiyoti hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish yakunlari va bu sohalarda eng muhim ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida // Zarafshon. – 2003. – 22-iyul. (№ 89 (20.665).
7. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti.
8. Haydarov O, Qoraboyev S. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Uslubiy qo'llanma. Samarqand. – 2022. –B. 26.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-noyabrdagi PF-295-sonli “Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikada ishbilarmonlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-233867?ONDATE=29.11.1991&action=compare>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 9-yanvardagi 4-sonli “Narxlarni liberallashtirish choralari to'g'risida”gi qarori,. <https://lex.uz/ru/docs/-366719#-833277>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-yanvardagi 22-sonli “Erkin narxlar joriy etilishi munosabati bilan talabalar, o'quvchi yoshlar, o'zgalarning qaramog'iga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlar va mehnatkashlarning imtiyozli umumiy ovqatlanishini tashkil etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar haqida”gi qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-375024?ONDATE=22.01.1992%2000#-375335>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-yanvardagi 23-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-380263?ONDATE=21.01.1992%2000#-708137>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 14-iyuldagi 325-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-478812>.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 25-maydagi 259-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-861377>.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 16-oktyabrdagi 475-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-505437?ONDATE=16.10.1992%2000#-505828>.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 22-dekabrdagi 584-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-809625?ONDATE=22.12.1992>
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-apreldagi 180-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-1131319>
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 10-sentabrdagi 450-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-631722?ONDATE=10.09.1993>
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 16-iyuldagi 360-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-890975?ONDATE=16.07.1993>
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-fevraldagi 87-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-640623>
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-fevraldagi 88-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-791245>
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 15-maydagi 168-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-2292439?ONDATE=15.05.1995%2000>.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-maydagi 183-sonli Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-509923>
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 25-yanvardagi 37-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-2289601#-2289657>.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 25-noyabrdagi 416-sonli Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-514170>
26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 26-noyabrdagi 419-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-514522?ONDATE=26.11.1996%2000#-514547>
27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-avgustdagi 397-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-563427?ONDATE=14.08.1997>
28. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-iyuldagi 373-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-1187871?ONDATE=29.07.1997%2000#-1187886>
29. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 4-sentabrdagi 378-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-816369?ONDATE=04.09.1998%2000>
30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-maydagi 248-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-1560065>

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 5-martdagi PF-1384-sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-173304?ONDATE=05.03.1996%2000#-1491814>
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 3-apreldagi PF-1416-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-286844>
33. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-avgustdagi 289-sonli Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-1661374?ONDATE=16.08.1996>
34. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 483-I-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-20326?ONDATE=26.08.2022>
35. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. O harfi. T. – 2000. –B. 58-59.
36. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. O'n ikkinchi chaqiriq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasidagi nutqi // Zarafshon. – 1993. – 4-sentabr. (№ 106 (19.131))
37. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. 1993-yil 5-iyul kuni Vazirlar Mahkamasi, Ijtimoiy ta'minot, Mehnat vazirliklari, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda tarmoq kasaba uyushmalari kengashlarining vakillari ishtirokida bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash masalasiga bag'ishlangan kengashidagi ma'ruzasi. O'zA // Zarafshon. – 1993. – 6-iyul. (№ 80 (19.105))
38. Abdug'aniev A. Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Ikkinchi nashr. T. – 2011. –B. 30.
39. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasidagi nutqi // Zarafshon. – 1995. – 26-dekabr. (№ 140 (19.438)).
40. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 1998-yilgi yakunlari va 1999-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan VM majlisida qilgan ma'ruzalari // Zarafshon. –1999. – 20-fevral. (№ 22 (19.969))
41. Ostonov O. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. T.: "Lesson Press" nashriyoti. –2022. – B. 84.
42. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. Vazirlar Mahkamasida 1995-yil yakunlari hamda joriy yildagi (1996-yil) vazifalarga bag'ishlangan majlisdagi nutqi // Zarafshon. – 1996. – 6-mart. (№ 20 (19.460)).
43. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi // Zarafshon. – 1997. – 4-mart. (№ 36 (19.634)).

44. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I. Vazirlar Mahkamasining 1997-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yakunlari hamda O‘zbekiston iqtisodiyotini 1998-yilda isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasi // Zarafshon. –1998. – 28-fevral. (№ 24 (19.815).
45. Xakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU, – 2006. – B. 39.
46. Xakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU, – 2006. – B. 108-109.
47. Xakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU, – 2006. – B. 132.
48. Ostonov O. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Lesson Press” nashriyoti, – 2022. – B . 81